Qabul qilindi: 19-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 21-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 23-noyabr 2026-yil

O‘SMIRLIK DAVRIDA O‘Z-O‘ZINI ANGLASHNING SHAKLLANISHI MUAMMOSINING NAZARIY JIHATLARI

Keńesbaeva Juldiz Dawitbay qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Psixologiya yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda o‘smirlik davrida o‘z-o‘zini anglash jarayonining shakllanishi, uning psixologik va nazariy jihatlari yoritilgan. O‘smirlik davridagi inqirozli holatlar, "Men konsepsiya"ning tarkib topishi hamda shaxslararo munosabatlarning o‘z-o‘zini anglashga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, o‘z-o‘zini anglash, "Men-konsepsiya", shaxsiy o‘ziga xoslik (identlilik), psixologik inqiroz, o‘z-o‘zini baholash, refleksiya.

Inson shaxsining shakllanishi va uning ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topishi murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uning eng mas’uliyatli bosqichlaridan biri o‘smirlik davri hisoblanadi. Bu davr shaxsning anatomik-fiziologik o‘zgarishlari, ijtimoiy maqomining o‘zgarishi hamda psixikasida sodir bo‘ladigan tub burilishlar bilan tavsiflanadi. O‘smirlik davrida o‘z-o‘zini anglashning shakllanishi muammosi nafaqat yosh davrlari psixologiyasi, balki pedagogika va sotsiologiyaning ham eng dolzarb ilmiy masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda o‘z-o‘zini anglash shaxsning o‘zini jismoniy, ruhiy va axloqiy jihatdan tushunishi, o‘zining imkoniyatlari va xususiyatlarini baholay olishi sifatida talqin qilinadi. Óz-o‘zini anglashi yosh va jinsiy o‘ziga xoslikka ega. Masalan, o‘ziga nisbatan o‘ta qiziquvchanlik, kim ekanligini bilish va anglashga intilish ayniqsa, o‘smirlik davrida rivojlanadi. Bu davrda paydo boladigan «kattalik» hissi qizlarda ham, o‘smir yigitlarda ham nafaqat o‘ziga munosabatni, balki o‘zgalar bilan bo‘ladigan munosabatlarini ham belgilaydi.[1-187 b] Qizlardagi «Men» obrazining yaxshi va ijobiy bo‘lishi ko‘proq bu obrazning ayollik sifatlarini o‘zida mujassam eta olishi, ayollik xislatlarining o‘zida ayni

paytda mavjud ekanligiga bog‘liq bo‘lsa, yigitlardagi obraz ko‘proq jismonan barkamollik mezonlari bilan nechog‘li uyg‘un ekanligiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘smirlikda o‘g‘il bolalardagi bo‘yning pastligi, muskullarning zaifligi va shu asosda qurilgan «Men» obrazi qator salbiy taassurotlarni keltirib chiqaradi. Qizlarda esa tashqi tarafdan go‘zallikka, kelishganlik, odob va ayollarga xos qator boshqa sifatlarning bor-yo‘qligiga bog‘liq holda «Men» obrazi mazmunan idrok qilinadi. Qizlarda ham ortiqcha vazn yoki terisida paydo bolgan ayrim toshmalar yoki shunga o‘xshash fiziologik nuqsonlar kuchli salbiy emotsiyalarga sabab bo‘lsada, baribir chiroyli kiyimlar, taqinchoqlar yoki sochlarning o‘ziga xos turmagi bu nuqsonlarni bosib ketadigan omillar sifatida qaraladi. Lekin shuni alohida aytish joizki, «Men» obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o‘sha shaxsni o‘rab turgan tashqi muhit, o‘zgalar va ularning munosabati katta rol o‘ynaydi. Odam o‘zgalarga qarab, go‘yoki oynada o‘zini ko‘rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada refleksiya deb ataladi. Uning mohiyati — aynan o‘ziga o‘xshash odamlar obrazi orqali o‘zi to‘g‘risidagi obrazni shakllantirishdir. Refleksiya «Men» obrazi egasining ongiga taalluqli jarayondir. O‘smirlik davrida bu jarayon quyidagi nazariy jihatlar asosida namoyon bo‘ladi: "Men-konsepsiya"ning faol shakllanishi: L.S.Vigotskiy, D.B.Elkonin, L.I.Bojovich kabi olimlarning ilmiy qarashlariga ko‘ra, o‘smirlik davrida shaxsning ichki dunyosi kengayib, o‘zining "Men"ini kashf etish ehtiyoji yuzaga keladi.[2-134 b] O‘smir o‘zini boshqalardan farqli o‘laroq noyob shaxs sifatida idrok eta boshlaydi. Identlilik (shaxsiy o‘ziga xoslik) inqirozi: E.Erikson nazariyasiga ko‘ra, o‘smirlik davrining asosiy vazifasi identlilikni topishdir. Agar o‘smir o‘zining jamiyatdagi o‘rni, qiziqishlari va kelajakdagi maqsadlarini anglay olmasa, rol chalkashligi (identlilik diffuziyasi) yuzaga kelishi mumkin. [3- 123b]

Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash: O‘smirlik davrida intellektual rivojlanishning yuqori bosqichi sifatida refleksiya (o‘z-o‘zini kuzatish, o‘z xatti-harakatlari va kechinmalarini tahlil qilish) rivojlanadi. Bu jarayon o‘smirda adekvat yoki nokadevat o‘z-o‘zini baholashning tarkib topishiga olib keladi. Ijtimoiy muhit va tengdoshlar ta’siri: O‘smir uchun kattalar nazoratidan ko‘ra tengdoshlari bilan muloqot qilish birinchi o‘ringa chiqadi.[4-110 b]

Tengdoshlar guruhidagi o‘zaro munosabatlar o‘smirning o‘zini o‘zi baholashi va ijtimoiy rollarni bajarishida asosiy ko‘zgu vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, o‘smirlik davrida o‘z-o‘zini anglashning shakllanishi shaxs taraqqiyotidagi eng muhim intellektual va emotsional bosqichdir. O‘smirlik davridagi o‘z-o‘zini anglash faqatgina yoshga doir inqiroz emas, balki shaxsning o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rishga bo‘lgan ichki ehtiyoji bo‘lib, bu jarayonda ularning kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy yo‘nalishini tanlash poydevori qo‘yiladi. Bu jarayonning nazariy jihatlarini chuqur o‘rganish o‘smirlardagi psixologik qiyinchiliklar, inqirozli holatlar va xulq-atvordagi og‘ishlarning oldini olishga hamda ularga to‘g‘ri pedagogik-psixologik yordam ko‘rsatishga xizmat qiladi. O‘smirda sog‘lom "Men-konsepsiya" va ijobiy o‘z-o‘zini baholashni shakllantirish uning kelajakda yetuk shaxs bo‘lib kamol topishining garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziyev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi. – Toshkent: Noshir, 2010.

2. UMUMIY PSIXOLOGIYA (2-KITOB) Yosh davrlari va pedagogik psixologiya SH.A.DO‘STMUHAMEDOVA, X.A.TILLASHAYXOVA, G.BAYKUNUSOVA, G. ZIYAVITDINOVA Toshkent: Noshir, 2020.

3. Erikson E. Identnost: yunost i krizis. – Moskva: Progress, 2006.

4. YOSH DAVRLAR PEDAGOGIK PSIXOLOGIYASI Darislik D.B.BOTIROVA Toshkent: Noshir, 2021.